

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING LIRIK JANRDAGI SHE'RLAR TAHLILI.

**Musajonova Yulduz** - Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning lirik janrdagi she'rlari badiiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda shoirning g'azal, ruboiy, qit'a kabi janrdagi asarlarida aks etgan muhabbat, vatanparvarlik, hayotiy kechinmalar hamda insoniy fazilatlar talqini yoritiladi. Bobur she'riyatining leksik-poetik xususiyatlari, obrazlar tizimi, mazmuniy qatlamlari va badiiy san'atlarning qo'llanishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, shoir lirikasining o'zbek mumtoz adabiyoti rivojiga ta'siri, uning she'riy merosida individual uslub, musiqiylik va samimiy ohangning o'rni tahlil qilinadi.

**Kirish so'zlar:** g'azal, ruboiy, ko'ngil, ahhob, gul, tikon, chehra, oshiq, asar, muhabbat, lirika.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri. U nafaqat tarixchi va davlat arbobi sifatida, balki she'riyat sohasida ham chuqur ijodiy me'ros qoldirgan shaxsdir. Bobur o'z davrining buyuk shaxslaridan biri bo'lgan. Uning she'rlari, ruboiylari o'z vaqtida va hozir ham sevib o'qilmoqda. U ota yo'lidan borib, mashhur so'fiy- Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik "Boburnoma" asarida Xoja Ahror ruhi bir nechs bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganini ta'kidlaydi. Adabyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olim-u fozillar davrasida bo'ldi, ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rsatib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Bobur tabiatan ijodkor bo'lgan. Yigitlik davridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan

shug‘ullandi, har aqnday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtatmadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Bobur ruboiylarini juda ham o‘zgacha ruhda yozgan. Masalan “Bu telba ko‘ngulki, ishq aning sudidur” ruboiysi:

Bu telba ko‘ngulki, ishq aning sudidur,  
Ahhobning ixtiloti maqsudidur.

Hijron chekib, ahbobni har kimki ko‘rar,  
Xush davlatiyu tolei mas’udidur.

Bu ruboiyda Bobur o‘z ko‘nglini “telba” deb ataydi. Ya’ni bu oshiqning holati. Uning “sudi”, ya’ni humkchisi ishqdir. Oshiqning asosiy maqsadi - ahbob (yor, do‘st) bilan uchrashish, visolga yetishishdir. Keyingi baytida esa, har kim hijron chekib, ahbobni ko‘radi, shu sababli u odam eng baxtli (xush davlat) va tolei yuqori (mas’ud) kishidir deydi. Bu ruboiyda shoirning ichki kechinmalari tasvirlanadi. Ahbobni yor demoqchi bo‘lsak, unig visoliga yetguncha ko‘plab azob chekkanini bilsak bo‘ladi. Uning visoliga yetgandan keyingina saodatga, oliy baxtga erishadi. Buni bir qarashda majoziy ishqqa atab yozilgan desak ham bo‘ladi, lekin bunda haqiqiy ishq tasvirlangan. Allohning ishqida ko‘ngli telba bo‘lganini, U bilan ko‘rishish, vasliga yetishish maqsadi ekanini aytadi. Hamma uning visolini ko‘rmoq uchun hijron azobida yonadi, lekin visoliga yetgandan keyin oliy baxtga, saodatga erishadi demoqchi. Chunki faqatgina Allohning vasligina oliy baxt bo‘la oladi.

keyingisi “Bobur, necha bu dahr meni zor aylar” ruboiysi:

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,  
Sabrimni kamu g‘amimni bisyor aylar.

To dahr durur, budur aning rasmikim,  
Ayrib kishini azizidin, xor aylar.

Bu ruboiyda “Bobur” deb murojaat qilib, ichki monolog yaratadi. Dahr esa falak, taqdir, dunyo ma’nosida. Birinchi misrada bu falak, bu dunyo nechi marta meni zor aylaydi, nechi marta qiynaydi, deyapti. Keyingi misrada esa zamon uning sabrini kamaytirib, g‘amini oshirishi haqida aytyapti. Bunda uning hayoti o‘g‘ir hijron,

ayriliqlar bilan, siyosiy bosimlar bilan to'la ekanini bilsak bo'ladi. Keyingisida esa hayot davom etar ekan, bu uning qoidasi, odati shunday, insommi aziz kishilaridan ayiradi, uni xor qiladi. Umumiy qilib aytganda, dunyo har bir insonni sabrini sinaydi, unga g'amlar beradi, eng yaqin kishilardan ayrib, shavqatsizlarcha uni xor qiladi. Chunki bu hayot qonuni. Bu ruboiyda o'zining hayoti tasvirlangan desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki hayot uni ko'p marta sinaydi. Bolaligida otasidan ayriladi, taxt esa o'zining qo'lida qoladi. Bu kichkina bola uchun juda katta mas'uliyat. Keyin esa vaqtlar o'tib. O'zga yurtga ketishga majbur bo'ladi. Hamma ham ona yurtidan ketganday keyin o'zini xor bo'lganday his qiladi. Bobur ham xuddi shunday. Samarqandni tashlab ketayotganida opasini Shaybonixon qo'lga tashlab ketishga majbur bo'ladi, xuddi oxirgi masradagi kabi hayot uni aziz kishilaridan ayirib, o'zga yurtda xor qiladi, ya'ni butun umr yurtini sog'inib yashaydi.

Yana biri “ Har yerdagul bo'lsa, tikon bo'lsa ne tong?” ruboiysi:

Har yerdaki gul bo'lsa, tikon bo'lsa, ne tong?

Har qandaki may durdi don bo'lsa, ne tong?

She'rimda agr hazl, agar jid, kechurung,

Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?

Bu ruboiyda Bobur:

-Dunyo shunday, qayerda gul bo'lsa, uning yonida tikon ham bo'ladi, bu ajablanarli emas. Har qanday sharob uzumdan tayyorlanadi, bir narsa ham may, ham uzum bo'lishi ajablanarli emas. She'rimda ba'zan hazil, ba'zan jiddiy gaplar bo'lsa meni kechiring. Chunki yaxshi odamning ichida ham ba'zan yomonlik uchrashi mumkin. Bu hayotning o'z qonuni. Shuning uchun meni ayblamang, demoqchi. Bunda ko'rinib turibdiki, har bir narsaning ikkinchi tomoni bor. Dunyo shunday, qarama-qarshiliklardan iborat, gul bilan tikon, yaxshi bilan yomon yonma- yon bo'lgani kabi. She'rimdagi bu ikki xillik ham xuddi shuni sasabidan deb biling deya bizga murojaat qilyapti. Bu ruboiyda tazoddan mohirona foydalangan. Bu esa ruboiyning falsafiy kuchini oshirgan.

Endi “mushkuldur” radifli g'azalini ko'rib chiqamiz:

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,  
Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldur.  
Mizojing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,  
Sanga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.  
Ne osig' nola-u faryod xobolud baxtimdin,  
Bir unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur.  
Manga osondurur bo'lsa, agar yuz ming tuman dushman,  
Vale bo'lmoq jahonda, ey ko'ngul, beyor mushkuldur.  
Visolinkim tilarsen nozini xush tortg'il, Bobur,  
Ki olam bog'ida topmoq guli bexor mushkuldur.  
Bu g'azalda Bobur yozga murojaat qilyapti:

Birinchi bayt ma'nosi oshiq yorsiz yashash, sabr qilish qanchalik qiyin bo'lsa, uning o'zi bilan yashash, til topishsih ham shunchalik mushkul. Bunda shoir yorning fe'l-atvori murakkabligi, ishqning har ikki tomoni ham azob ekanini ifodalayapti.

Ikkinchi baytda ey pari, sen nozikmijoz, ammo tundsan, chchiqsan, men esa telba oshiq. Shunday ekan holimni tushuntirish, qalbidagi kechinmalarni aytish oson emas demoqchi. Bunda oshiqning ojizligi, yorning injiqligi tasvirlanadi. Yorga dardini aytishning ham mushkulligi ko'rsatiladi.

Uchinchi baytda esa baxtim uyquda yotgan, qismatim xobolud bo'lgani uchun qilgan nola-yu faryodim uni uyg'ota olmaydi- uni uyg'otish juda mushkuldir. Bu baytda shoir o'zining omadsizligini, baxti esa "uxlab yotganini" obrazli ifodalab beradi.

To'rtinchi baytda yuz minglab dushman qarshi tursa ham, mening bardosh berishim oson, ammo, ey ko'ngil, yordan ajrab, yolg'iz bo'lib yashash-beyor bo'lish juda mushkul. Bunda dushmanlar bilan kurashish oson, ammo yor hijroniga bardosh berish juda qiyinligini, eng og'ir sinov ekanini aytmqchi.

Oxirgi baytda esa ey Bobur, agar visolni istasang, yorning noz-karashmalariga chiroyli chidagin. Chunki olam bog'ida bexor, tikansiz gulni topish juda qiyin. Bunda



ishqdagi mashaqqatlar tabbiy, gul tikansiz bo'lmagani kabi yorning nozini tortmay turib yorning visolga erishilmaydi.

Bu g'azal yorga atab yozilgan. Bunda oshiq qalbining ichki kechinmalarini chuqur lirizm bilan tasvirlaydi. Asarning asosiy g'oyasi esa ishqning mushkulligi, noziga sabr qilish zarurligi va visolning osonlik bilan topilmasligidir. Albatta ishqqa osonlik bilan erishib bo'lmaydi. Haqiqiy ishq bo'lsa ham, majoziy ishq bo'lsa ham. Ishq albatta mashaqqatli bo'ladi. Yorning visoliga erishish uchun oshiq juda ko'p mashaqqat chekishi lozim. Bu ishqning qoidasi. Allohning vasliga yetishish uchun ham mashaqqatlardan kechish lozim. Sabr qilib, qiyinchilikka chidasakkina Allohning vaslini ko'ra olamiz. Shunday ekan ishq so'zi bilan hijron, mashaqqat so'zlari doim yonma-yon turadi. Bu g'azalda ham badiiy san'atlar, o'xshatishlardan juda chiroyli foydalangan.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning lirik merosi o'zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunalaridan bo'lib, unda ishq, tabiat, inson ruhiyati va hayot falsafasi chuqur badiiy tasvir topgan. Bobur she'rlarida samimiylik, tabiiylik va teran mazmuni bilan ajralib turadi. Uning g'azal va ruboiylarida oshiq kechinmalari, hijron iztirobi, visol umidi, vatan sog'inchi va shaxsiy hayot tajribalari hayotiy obrazlar orqali ifodalanadi. Bobur lirikasining badiiy qudrati shoirning ichki dunyosini sodda, lekin nafis uslubda ochib berishida namoyon bo'ladi. Uning asarlari o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin tutadi va bugungi kunda ham ma'naviy ahamiyatini yo'qoymagan. Uning she'riy merosi yangi avlod uchun ham ibrat va ruhiy ozuqa bo'lib xizmat qilmoqda. Uning qalamiga mansub har bir misra bugungi o'quvchi uchun ma'naviy uyg'oqlik va go'zallik manbaidir. Shu bois Bobur lirikasini o'rganish nafaqat adabiy merosni anglash, balki inson qalbining cheksiz olamini kashf etishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Azimjonov S, Zahiriddin Muhammad Bobur, maqolalar to'plami, T, 1995
2. H.Qudratullayev. Bburning adabiy-estetik qarashlari. T:Fan,1983

3. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996
4. “Bobur” O‘Zme. Birinchi jild. Toshkent. 2000
5. Bobur. Tanlangan asarlar. T.:1958
6. Bobur. Asarlar. Uch jildlik,-T.:fan, 1965-1966